

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 6, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 6, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2023-3>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек
масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек
отв. секретарь, доцент (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek
Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Qobilov Usmon Uralovich ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI OBRAZLAR OLAMI VA BADIYYAT MASALASI.....	5
2. Abror MURTAZAYEV NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR MATNINI LINGVISTIK EKSPERTIZA QILISHNING TURLARI.....	12
3. Abdug'aniyeva Iroda Abbos qizi SPEECH ACT THEORY AND ITS CLASSIFICATIONS.....	19
4. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILIDAGI FOLKLORNING DEMOOLGIK VA MIFOLOGIK PERSONAJLARNI TAQQOSLASH.....	24
5. Saliyeva Ziroat Zokirovna YOZISHNI ORQITISHNING XUSUSIYATLARI VA YONDASHUVLARI.....	29
6. Габбובה А.Қ., Алиева М.И., Мехтиева З. Х. ОСОБЕННОСТИ КОМПСТИРОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОТХОДОВ С ЧАСТИЦАМИ РАЗНОГО РАЗМЕРА.....	35
7. Нодира Аззамовна Исакова ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ЎЗЛАШМАЛАРНИ ТАСНИФЛАШ ВОСИТАЛАРИ.....	40
8. Tagayeva Tamara Baxodirovna U.S.MAUGHAM BADIY USLUBINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.....	47
9. Усманова Салиха Юлдашевна, Хайдарова Гулбахор Юлдашевна ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРАТИВНО - ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	53
10. Тагаева Сайёра Улашевна, Мустанова Шохиста Артиковна MUTTER/ ОНА КОНЦЕПТИНИНГБАДИИЙ МАТНЛАРДА ВОКЕЛАНИШИ.....	58
11. Hamroyeva Farida Faxriddinovna “BABYLON REVISITED” VA “IMON” NOVELLALARIDA MAVZUGA OID NARRATIVLI TRANSPOZISIYA XUSUSIDA.....	63
12. Shapsanova Feruza Muzaffarovna PESSIMISTIC MOOD TOWARD HUMAN NATURE DEPICTED IN THE NOVEL “THE UNICORN” BY IRIS MURDOCH.....	68
13. Buranova Lola Uktamovna FORMING THE SKILLS OF MONOLOGUE AND DIALOGUE SPEECH IN FOREIGN LANGUAGE.....	75
14. Umarova Oyzoda Solijonovna, Farhodova Shahzoda Umidovna INGLIZ TILI SHAKLLARINING SOTSIOLOGVISTIK TADQIQI.....	81
15. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o'g'li ALFRED DE MYUSSE ASARLARIDAGI BADIY ZAMON TASNIFI.....	86
16. Abdusalamova Lobar Akbar Qizi CH. AYTMATOV IJODI VA XX ASR SO'NGGI CHORAGIDAGI INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIGI (“Alvido, Gulsari!” qissasi misolida).....	90
17. Tursunova Parvina, Tuychiyeva Maxchexra, Abdullayeva Parvina O'QUV-PEDAGOGIK JARAYONINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.....	97
18. Kadirova Dilfuza Alisherovna O'ZBEK TILIDA MAQTOV KONSEPTINING VERBALIZATSIYASI.....	102

19. Botirova Maxliyo O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA REKLAMA MATNLARI TADQIQIGA DOIR ISHLAR TAHLILI.....	106
20. Zakirova Madina Damirovna MAIN LINGUISTIC APPROACHES TO THE INVESTIGATION OF FOREGROUNDING.....	112
21. Бобоев Улаш Нейматович ЭФФЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ ПЕРЕВОДА СРЕДСТВ ШОК-ТЕЙМЕНТА В УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ НА РУССКИЙ ЯЗЫК.....	120
22. Atabayeva Zarnigor Baxran qizi JAHON ADABIYOTIDA DEMONIZATSIIYA MOTIVI, UNING GENEZISI VA ANAMIYATI.....	126
23. Джураев Ботир Илхомович ИНГЛИЗ ТИЛИДА МИҚДОРИЙ АСПЕКТУАЛЛИКНИНГ СИНТАКТИК ИФОДАЛАНИШИ.....	133
24. Балясникова Марина Александровна К ЭТИМОГРАФИИ СИМВОЛА “РАДУГА” В ИНДОЕВРОПЕЙСКИХ ЯЗЫКАХ.....	138
25. Ташбекова Дилором Исмаиловна, Вохидова Нигора Абдузугуровна ПОНЯТИЕ «ЯЗЫК» В РУССКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).....	145
26. Roza Timonova, Khadicha Suyarova THE IMPACT OF LINGUISTIC PECULIARITIES IN ADVERTISING LANGUAGE: A STUDY ON PUNS, METAPHORS, AND SLOGANS.....	150
27. Ёринова О. ЧОРВАЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИ ЁРТАСИДА ГИПОНИМИЯ ХОДИСАНИНГ ШАКЛЛАНИШИ.....	155
28. Камалходжаева Саида Саидахмадовна ПРАНК КАК ОБЪЕКТ СУДЕБНОЙ ЛИНГВИСТИКИ.....	160
29. Koziyeva Iqbol Komiljonovna KELIB SHIQISH TURKIY BO‘LGAN RUS FAMILIYALARI.....	163
30. Юнусова Диёра Аминовна СИНТАКСЫ, ВЫРАЖЕННЫЕ ОТНОСИТЕЛЬНЫМ МЕСТОИМЕНИЕМ THAT В ПОЗИЦИИ ЯДЕРНОГО ПРЕДИЦИРУЕМОГО КОМПОНЕНТА.....	170
31. Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi Qizi AYRIM OMONIM TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK VA LINGVOSTATISTIK TAHLILI.....	175
32. Xolova Muyassar Abdulhakimovna SURXONDARYO VILOYATI SHEVALARINING O‘ZBEK MILLIY DIALECTAL KORPUSIDA REPREZINTATIVLIGI.....	180
33. Nilufar Abduraxmonova, Saodat Boysariyeva TABIIY TILNI QAYTA ISHLASHDA (NLP) OKKAZIONALIZMLARNING MORFEM TAHLILI.....	188



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz


Abdusalamova Lobar Akbar Qizi

“Ipak yo’li” turizm va ma’daniy meros xalqaro universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

cool.abdusalamova@mail.ru

CH. AYTMATOV IJODI VA XX ASR SO`NGGI CHORAGIDAGI INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIGI (“Alvido, Gulsari!” qissasi misolida)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8249762>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oʻtgan asrning soʻnggi choragida Ch. Aytmatov ijodining ingliz adabiyotshunosligida oʻrganilishi va idrok etilishi zamonaviy adabiyotshunoslikda yangicha yodashuvlar namunasi sifatida koʻrsatib berilgan va ushbu masalaga doir tahlil, mulohazalar, maqolalar, esselar, va sharhlar bir-birma koʻrib chiqilgan va tahlil qilingan. Ingliz adabiyotshunoslarning ilmiy asarlarida maʼlum maʼnoda estetik jixatdan bir yoqlamalik kuzatilsada, muallifning milliy va jahon adabiyotiga qoʻshgan ulkan hissasi, mavzular talqini, xarakterlar novatorligi kabilar darajasida keng yoritilgan va yakdillik bilan eʼtirof etilgan. Bunda asosiy eʼtibor oʻz davrida Gʻarb adabiyotshunosligida katta shov-shuvlarga sabab boʻlgan “Alvido, Gulsari!” qissasiga qaratilgan va unga nisbatan yetakchi ingliz adabiyotshunoslarning fikrlari umumlashtirilgan.

Kalit soʻzlar: mifologema, bistiari motiv, idrok va talqin, postkolonializm adabiyoti, qirgʻizcha badiiy-estetik qadriyat, xalq ogʻzaki ijodi unsurlari, poetik voqelik

Абдусаламова Лобар Акбар Кизи

Докторант 2-ого курса

Международного университета туризма и
культурного наследия "Шелковый путь"

cool.abdusalamova@mail.ru

ТВОРЧЕСТВО Ч. АЙТМАТОВА И АНГЛИЙСКОЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ ПОСЛЕДНЕЙ ЧЕТВЕРТИ XX ВЕКА (на примере повести “Прощай, Гулсар!”)

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучение и восприятие творчества Чингиза Айтматова в англоязычном литературоведении показано как пример новых подходов в современном литературоведении, а также были рассмотрены и проанализированы один за другим анализы, рассуждения, статьи, эссе, анализы и комментарии, посвященные этому вопросу. Хотя научные труды англоязычных литературоведов в известном смысле однобоки с эстетической точки зрения, широко освещается большой вклад автора в отечественную и мировую литературу, трактовка тем, новаторство персонажей единодушно признаны. Основное внимание уделяется повести

«Прощай, Гульсар!»), её сюжету и обобщаются мнения ведущих англоязычных литературоведов.

Ключевые слова: мифологема, бестиарный мотив, восприятие и интерпретация, постколониальная литература, кыргызские художественно-эстетические ценности, элементы фольклора, поэтический факт.

Abdusalamova Lobar Akbar Kizi

2nd year doctoral student International University
of Tourism and Cultural Heritage "Silk Road"

cool.abdusalamova@mail.ru

CH. AITMATOV'S WORKS AND ENGLISH LITERARY CRITICISM IN THE LAST QUARTER OF THE 20TH CENTURY (on the example of the story "Farewell, Gulsari!")

ABSTRACT

In this article, the study and perception of Chingiz Aitmatov's work in English literary criticism is shown as an example of new approaches in modern literary criticism, and analyzes, reasoning, articles, essays, analyzes and comments on this issue were reviewed and analyzed one after another. Although the scientific works of English-speaking literary critics are in a certain sense one-sided from an aesthetic point of view, the great contribution of the author to domestic and world literature is widely covered, the interpretation of topics, the innovation of the characters are unanimously recognized. The main attention is paid to the story "Farewell, Gyulsari!", its plot and the opinions of the leading English-speaking literary critics are summarized.

Key words: mythologeme, the symbol of horse, perception and interpretation, Kyrgyz culture, literary and aesthetic values, folklore elements, poetic fact.

Qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ijodi adabiyotshunoslik ilmi vakillarini, jumladan, inglizzabon kitobxonlar hamda adabiyotshunoslarni ham ilk asarlaridan boshlab qiziqtirib kelgan. Hozirga qadar ingliz tilli ilmiy nashrlarda yozuvchi ijodi haqida ko'plab maqolalar, esselar, tahlil va sharhlar e'lon qilingan. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda olimlar va boshqa nashrlarda oddiy kitobxonlar tomonidan Ch.Aytmatov ijodini idrok etilishi haqida ham qator mulohazalarni uchratishimiz mumkin [1]. Ammo bizni ushbu maqolamizning asosiy maqsadi yozuvchi ijodining tadqiqi va o'rganilishiga bag'ishlangan ilmiy asarlarni yangi ijtimoiy-madaniy munosabatlar sharoitida, jumladan, O'zbekiston ham xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylanib, siyosiy tazyiqlardan yiroqlashgan davr nuqtai nazaridan o'rganish hisoblanadi. Afsuski, hozirgi davrga qadar ingliz tilli adabiyotshunoslarning ilmiy asarlari o'zbek va rus tillariga yetarli darajada tarjima qilinmaganligi sababli, Ch.Aytmatov ijodining ingliz tilli madaniy makonda qabul qilinishi, tushunilishi va idrok etilishi masalasini o'rganish milliy adabiyotshunosligimiz uchun ham ochiq ilmiy masala bo'lib turibdi. Holbuki, jahon adabiyotida kechgan jarayonlar kontekstisiz, jahon aytmatovshunosligidagi, xususan, o'tgan asrning choragidagi faol bo'lgan ingliz adabiyotshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarisiz, Ch.Aytmatov ijodini ilmiy asnodan o'rganilishi mushkuldir.

Chingiz Aytmatov ijodini o'rganishga bo'lgan qiziqish Amerika Qo'shma Shtatlari adabiyotshunosligida alohida o'rin egallaydi. Hozirga qadar yozuvchi ijodi to'g'risida bir qator doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinib, yirik monografiyalar, ko'plab ilmiy maqolalar nashr etilgan. Bu qiziqishning dalili sifatida yozuvchining barcha asarlari ingliz tiliga o'girilganligini, ayrim AQSh oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalarida yozuvchi ijodini u yoki bu darajada qamrovchi mavzularni uchratishimiz mumkinligini ko'rstishimiz mumkin.

Ch.Aytmatov ijodining boshidan, xususan, "Alvido, Gulsari!" (1966) qissasi e'lon qilingan paytdan inglizzabon madaniy makonda asosiy e'tibor asardagi ijtimoiy ziddiyatlarga, sho'rolarcha turmush tarzining tanqidiga, fojeaviyligiga, tuzum adabiyotshunoslari o'rtasida katta bahslarga sabab bo'lgan folklor unsurlarini o'rganishga yo'naltiriladi. Ma'lumki, aksariyat sho'ro tanqidchilari,

mutaxassislari asar matnidan davrga xos sotsrealizm metodiga muvofiqlikni axtarishadi va buni isbotlamoqchi bo'lishadi [1]. Adabiyotshunoslar dalil sifatida firqadan o'chirilgan asar bosh qaxramonini Tanaboyning finalda yana firqaga qaytmoqchi bo'lganini ko'rsatishadi. Ammo bu masalaga nisbatan G'arb, xususan, amerikalik tanqidchilarning fikri boshqacha bo'ladi. Inglizabon adabiyotshunoslikda yozuvchi ijodi, asarlarining idrok etilishi hamda tahlili to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun "Alvido, Gulsari!" qissasining poetikasi tahliliga bag'ishlangan asosiy ilmiy ishlarga batafsil to'xtalmoq joiz.

Bu qissa yuzasidan G'arb madaniyatshunosligida mavjud mulohazalarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan fikrlardan biri Amerikaning Prinston universiteti professori Svat Souchekka tegishli. U o'zining "Chingiz Aytmatov asarlarida milliy kolorit va bilingvizm" nomli maqolasida [6] yozuvchi ijodini "Jamila" qissasidan boshlab, "Fudziyamaga chiqish" dramasiga qadar rivojlanish tamoyillarini batafsil o'rganadi. Olimning fikriga ko'ra, Ch.Aytmatov badiyatining bunday tez yuksalishiga sababi va poydevori uning ikki xalqning –ruslar va qirg'izlar- madaniy hamda adabiy xazinasiga murojaat etganligi bilan bog'liq. Bunda, ayniqsa, uning turkiy xalqlarning eng qadimiy yozma yodgorliklaridan O'rxun-Enasoy toshbitigi hamda qirg'izlarning "Manas" dostonidan ilhom olishining ahamiyati katta bo'lgan.

Ma'lumki, turkiy xalqlar mifologemasida bistiari motiv - ot timsoli, ramzi totem-sig'inish darajasidagi ma'bud o'rnida ko'rilgan. "Alvido, Gulsari!" qissasida aynan o'sha bir necha ming yillik xalq xotirasi chizgilari ham namoyon bo'ladi. Asarda qo'llanilgan asar poetikasining muhim tarkibiy qismi sifatida ranglar, hidlar va tovushlar ham bundan dalolat beradi va biz ularga quyida batafsil to'xtalamiz. S. Souchekning fikriga ko'ra esa, Ch.Aytmatov ijodining ibtidosi, uning voqeahodisalarga boy bolalik chog'laridan boshlanadi. Qissa syujetining keng batafsil tarzda o'rganar ekan, amerikalik olim obrazlar tizimi tahliliga to'xtalib, Tanaboy va Gulsari kabi murakkab obrazlarni badiiy-estetik mohiyatini yoritishga harakat qiladi. Afsuski, u tabiat-peyzaj tasviriga bir necha marta keng to'xtalsa-da, rang-tasvir, odorizm va fonologiyaning obrazlar darajasiga ko'tarilganligiga e'tibor qaratmaydi, zero, bu mavzu oradan o'n yillar o'tgach adabiyotshunoslikda endi ishlanayotganligi ham haqiqat.

Olimning fikriga ko'ra, Gulsari – ot obrazining dinamikasi "yozuvchining ulkan yutug'idir" [6,70-98]. Gulsari obrazini amerikalik olim tomonidan nisbatan chuqur ochib berilishi omili sifatida Souchek yozuvchining Gulsari kabi obrazlar bilan rus adabiyoti orqali (ko'pchilik munaqqidlar L.N. Tolstoyning "Xolstomer" asaridagi o'tni eslatishadi, Souchek ham shunday qiladi) tanishligini, muallifning veteranarlik ma'lumotini ko'rsatib, bu holatlar jonvorga yuksak insoniy fazilatlar bag'ishlashga yordam bergan deb hisoblaydi. Bizningcha, buning sabablari kengroq ko'rsatilsa ham bo'lardi. Ch.Aytmatov ijodiga shubhasiz "Manas"dan tashqari boshqa turkiy xalqlar eposlarining, jumladan, masalan, o'zbek xalqini "Alpomish" dostonining, jahon adabiyoti namunalarini, masalan, Ernest Seton Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" qissasini ta'siri katta bo'lganligi shubhasiz. S. Souchek esa, ma'lum ma'noda sho'ro adabiyotchilari yaratgan mafkuraviy ustqurtmalar zamiridagi ilmiy asarlar ta'sirida qolsada, asardagi bu tuzum talablariga zid bo'lgan, muallifning jasurligini va badiiy ijod talablariga rioya qilgan holda yaratilgan matn xususiyatlarini e'tirof qila biladi. Jumladan, olimning fikricha, Tanaboy o'zining baxtli kelajak to'g'risidagi mafkuraviy e'tiqodlariga mutaassublarcha ishonganligi uchun jazolangan inson, deb hisoblaydi. Tanaboyning fojeasini olim, u sig'ingan ideallar o'z qadrini saqlab qololmaganligida va qaxramonning o'ziga qarshi bo'lib qolganligida deb biladi. Buning isboti tariqasida olim qaxramonning e'tiqod yo'lida o'zining katta akasini quloqqa topshirganligini, partiya esa, o'z navbatida vaqti kelib uning o'zini rad qilganligini keltiradi. Amerikalik olim sho'rolar davrida hukumatni, uning vakillarini salbiy qaxramon sifatida tasvirlash, favqulodda xavfli bo'lganligini va bunga senzura yo'l qo'ymasligini ham biladi. Ch.Aytmatov esa, Segizboev, Aldanov, Qashqatov kabi obrazlarni aynan shunday tasvirlaydi, Tanaboyning kolxozdan chiqarilishi, partiyadan haydalishi, shubhasiz, siyosiy tuzum yozuvchidan amalda talab qiladigan badiiy tasvir me'yorlariga mos emas edi. Asar so'ngidagi yosh avlod vakili Karimbekovning paydo bo'lishi qalblarda umid uchqunini yoqadi. S. Souchek bular haqida batafsil yozar ekan, hech qanday xushxabar Tanaboyni endi baxtli qilolmasligini, keksa qirchang'iga aylanib borayotgan Gulsariga o'tmishidagi mashhur yo'rg'asini qaytarib berolmasligini yaxshi anglaydi.

Olim davr va ijod psixologiyasi o'rtasidagi farqni o'ylab shunday xulosalaydi: “Aytmatov –sho'rolar yozuvchisi. Bunday holda u mavjud tizimni tanqid qiluvchi, hukmron mafkuradan yiroq asarni qanday yoza oldi?” Olim bu savoliga o'zi shunday javob beradi: “Fuqarolik, siyosiy sathda u (Aytmatov) hech bir shubhasiz o'z mamlakatining siyosiy tizimining ustunligiga ishonadi. Badiiy-adabiy sathda esa, u-yozuvchi, hayotni bor murakkabliklari, siyosiy ziddiyatlari bilan aks ettiradi. Aynan ushbu jihatlarda shunday hayratomuz, noan'anaviy usulda yaratilgan samimiy asarlarini dunyoga keltirdi, ular esa stereotip personajlar hamda syujetlardan, olqishlardan charchagan kitobxonlar hayratiga sabab bo'lmoqda” [6, 70-98]

“O'rta Osiyo, Rossiya va sho'ro madaniyatlari chegarasida izlanishlar: Temur Po'latov va Chingiz Aytmatov asarlarida shaxs muammosi” mavzusida Vashington universitetida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan Entoni Kualin ham yozuvchi ijodi haqidagi izlanishlarida “Alvido, Gulsari!” asariga alohida to'xtaladi. U o'z ilmiy ishining bu asarga bag'ishlangan bobini “Tuyalar va otlar, shaharlar va mashinalar: ana'anaviylik zamonaviylikka qarshi” deb nomlaydi [5]. Olim yozuvchi qissasini ijodining yangi bosqichini boshlanishi deb ataydi va asar oldingilaridan farqli o'laroq, rus tilida yozilganligini ta'kidlaydi. Bu esa o'z navbatida rus tilli kitobxonlar auditoriyasiga asarni idrok etilishida yengillik tug'dirgan bo'lsa, boshqa tomondan, asarda foydalanilgan folklor unsurlari sabab tushunishni qiyinlashtirgan. Kualin asarga sharh yozgan Mozuraning yozuvchi vatani chegarasidan tashqari chiqib ketgan voqealar tasvirlangan “Alvido, Gulsari!”, “Oq kema”, “Fudziyamaga chiqish” kabi asarlarida aks ettirilgan muammolar sababli tashvishlanishiga qarshi chiqadi. U opponentiga aslida muammolar qirg'iz halqi hududidan tashqari chiqib universal tus olishidan emas, balki o'z xalqi madaniyatini turli ichki muammolardan himoya qilish tashvishini chekishi kerakligini eslatadi. Isbot tariqasida Kualin mustamlakachilik nazariyasiga tayanadi, aniqrog'i, faylasuf Frants Fanonning postkolonializm yozuvchisi haqidagi nazariyaga [7] asoslanadi. Bu nazariyaga ko'ra, o'z ijodiy taraqqiyotining ikkinchi bosqichida postkolonial yozuvchi xotiralari tubidan bolalik voqealarini qidirib topadi va ularga yangicha mazmun bag'ishlaydi, bosqinchilar ta'siridagi salbiy holatlarni eslatib eskicha ezgu odatlarni eslatadi. Fanonning bu nazariyasini o'z qo'lidagi zarur kalit sifatida bilib, Kualin o'z qarashlarini rivojlantirar ekan, Ch.Aytmatov “Alvido, Gulsari!” qissasidan boshlab, eski, milliy an'analar sho'rolar va G'arb madaniyatiga ko'ra, ancha yuqori, yuksak ma'naviy va ahloqiy darajada ekanligini tasdiqlamoqchi bo'ladi, degan xulosaga keladi. Olim o'z mulohazalarini isbotlash uchun asarlar matniga murojaat qiladi: agar “Birinchi muallim”da qora uy-o'tov Oltinoy uchun qamoq timsoliga aylansa, “Alvido, Gulsari!” qissasida muallif qaxramoni tilidan kishilar o'tmish qadriyatlarini unutishayotganligi to'g'risidagi tashvishlarini bayon qiladi. [7,31] Agar birinchi asarda mashina ijtimoiy taraqqiyot, rivojlanish alomati bo'lsa, keyingisida, “Alvido, Gulsari!” qissasida qirg'izlarga yetkazilgan “barcha yomonliklar” ramziga aylanadi. Gap faqat Tanaboyga yo'lida uchragan og'zidan aroq hidi anqib turgan-Rossiyaga, ruslarga xos ko'pga tanish badbo'y hid (odoristik detal)- shofyorni uchratganligi uchun emas, balki bu hid butun negativ stereotip xarakterlarni eslatgani uchun ham ramziy obrazga aylanadi. Amerikalik olim butun tadqiqoti davomida Gulsari obraziga katta e'tibor beradi. Otni, haqli ravishda turkiy xalq bo'lgan qirg'izlar madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarab, uning zanjirband etilishi va bichilishida, sho'rolar hukumatining milliy siyosatini keskin tanqidini ko'rmoq kerak, deb uqtiradi. Milliy ildizlarini, kelib chiqishini unutgan Aldanov (aslida bu ham gapiruvchi ism –aldanmoq ma'nosidagi uzakka ega, muallifning gapiruvchi familiya orqali o'z e'tiqodini tanlashda aldanganligiga ishora zohir) o'zligini unutgan kimsa. Gulsarining aynan Aldanov-aldangan kimsa tomonidan azoblanishi keyingi ijtimoiy yangiliklarni ham qoralanishiga olib keladi. Kualin, olim sifatida bu personajni turkiy o'zakli ismi-sharifining etimologiyasidan katta ehtimol bilan bexabar bo'lsada, muallif badiiy-estetikasini anchayin to'g'ri va xolisona idrok eta oladi. Gulsari bichilganidan so'ng tashqi qiyofasi o'zgarib qolgan bo'lsa-da, uning tabiati tubdan o'zgarib ketadi, deya qayd etadi amerikalik olim,- va “shaklan milliy va mazmunan sotsialistik bo'lgan madaniyat” [7,34] g'oyasining mazmunini sharhlashda davom etadi. Bu madaniy siyosat qismati va mohiyatini ifodalash uchun bichilgan yo'rg'adanda ko'ra a'loroq timsol topish mushkul.

Yana o'z qarashlarini isbotlashni davom ettirar ekan, olim asarda shunday dalillarga murojaat qiladi: matnda qirg'iz milliy madaniyati an'analarining alohida bir shaxs bilan aloqasi namoyon

bo'ladi. Uning fikricha, agar "Alvido, Gulsari!" asarida xalq og'zaki ijodi elementlari-unsurlari Tanaboyning iztiroblarini umumlash tirgan bo'lib, asarni yaxlit tarzda qirg'iz madaniyati haqida yig'i, marsiya sifatida qaramoq joiz. U bu asar haqidagi mulohazalarini shunday xulosalaydi: "Aytmatov tomonidan formal jihatdan sotsialistik realizm talablariga mos ravishda Qirg'izistondagi sho'rolar hukumatining faoliyati natijalarini qissada ko'rsatilishi, kinoyalidir... u bu holatga tashlanadi, keskin tanqid qiladi" [7, 36].

Ko'plab amerikalik munaqqidlar qatorida Kualin tomonidan qirg'iz yozuvchisining badiiy merosini idroki va talqini Ch.Aytmatov asarlarining badiiy-estetik qadriyatini tushunishga yordam beradi. Bu olim ham aksariyat amerikalik munaqqidlar kabi asar yaratilgan paytdagi sho'rolar hukumati va jamiyatidagi holatga ko'p to'xtaladi. Muallif amalda aytmagan, qatorlar "tagiga" bekitilgan fikrlarning baralla aytilishi, qissada "milliy" deb atalishi mumkin bo'lgan narsalarga ortiqcha urg'u berilishi, uni Fanonning mustamlakachilik nazariyasiga murojaat qilishi, tadqiqot davomida o'ta siyosatlashuvga, uslubning publitsistik tus olishiga, badiiy uslub, so'z qo'llash mahorati kabi sof so'z san'ati, badiiy poetika unsurlari qolib (odorokolofonistik birliklar uyoqda tursin), ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlarga ko'proq e'tibor berilishiga olib kelgan. Shunday bo'lsada, aksariyat mutaxassislarining e'tirofiga ko'ra, Kualinning "Alvido, Gulsari!" borasidagi mulohazalari e'tirof etiladi va noyob topilmalari bilan yuqori baholanadi.

Amerikalik yana bir adabiyotshunos Shiila Daffin Grexem "Chingiz Aytmatovning "Alvido, Gulsari" asari" nomli yirik maqolasida yozuvchini ijodlarida o'zlarining tug'ilgan joylarini kuylashgan Narayyan, Uilyam Folkner, Tomas Xardi kabi jahon klassiklari bilan qiyoslaydi. Peyzajlar, an'analar va odatlar, tili – nimaiki asarlarida tasvirlangan bo'lsa, barchasi Aytmatovni tarbiyalagan ona xalqi qirg'izlarga aloqadordir, deya ta'kidlaydi olima. Asarda tasvirlangan hayvonot olami, atrof-muhit, Shimoliy Rossiya adabiyotida tasvirlangan o'xshash tasvirlardan tubdan farq qiladi, bu yerda ular boshqacha. Shiila Daffin Grexem misol taraiqasida ipidan ignasigacha batafsil tasvirlangan qirg'izlarning olomon poygasini keltiradi. Hatto Yaratganning nomi bu xalqlarda turlicha: ruslar Bog-Xudo deyishsa, qirg'izlar Allohga sig'inishadi. Barcha folklor qo'shiqlari va obrazlar Sharqqa xos. Aytmatov asarlarida tasvirlangan barcha jonivorlar- bo'ri yoki ayiq emas, balki tuya va tog' echkilaridan iborat. O'z maqolasida Grexem xonim bu asarning maktabda o'rganilishi metodikasiga ham to'xtalib o'tadi: undagi ekzotik fon alohida sharh va tushuntirishlarni talab qilmaydi, biroq o'quvchilarga yozuvchining ko'chmanchi qirg'iz xalqi hayotiga inqilob va sho'rolashtirishning ta'siriga munosabatini tushuntirish kerak bo'ladi. Olimning fikriga ko'ra, asarning asosiy mavzularidan biri Rossiya –bu Sho'rolar Ittifoqi emasligini tushuntirilishidir. Agar bu mavzuga shunday planda qaralsa, "Alvido, Gulsari!" va ruslarning "qishloq nasri"- "drevenskaya proza" o'rtasida qandaydir o'xshashlik mavjud. Tadqiqotdagi shunday holat e'tiborni tortadi, olimaning fikriga ko'ra, "asarda Stalin davri nomini tilga olmasdan, "muborak daxshat" ismi, atalmasdan tasvirlanadi". [2, 34-42] Tanaboy halok bo'layotgan Gulsarining boshida o'tirib, bosib o'tgan hayot so'qmoqlarini qayta hayolidan o'tkazadi. Olimaning kuzatishicha, so'z o'z qudratini partiya yig'ilishlarida yo'qotadi, chunki bahslar o'rniga shiorlar jaranglaydi, aynan shunday paytlarda Tanaboyning halolligi, haqgo'yiligi stalinizm bilan ziddiyatga kirishadi. Segizboevni qoralar ekan, Tanaboy o'zi haqida uylanib qoladi. U bir narsadan tashqari hammasini tushunadi - partiyadan o'z mansabparastligi yo'lida foydalanayotgan Segizboevning kuch ishlatish imkoni bo'lsada, o'zi uning yugurdagi ekanligini, ya'ni bu kuch nima hisobidanligini chuqur anglab yetolmaydi.

Sh. Grexem Ch.Aytmatovning bu asarini "o'z davrining eng yorqin asari" deb atagan G. Gachev [3,321] so'zlarini keltirar ekan, bu sho'ro olimi matnni "tanqidiy" tahlilidan chekinganligini ko'rsatib o'tadi. Bu, amerikalik olimaning fikriga ko'ra, to'g'ri pozitsiya. Asar mantiqid an, muallif pozitsiyasidan kelib chiqilsa, uning stalinizm haqidagi bahslarida hech narsa unutilmasligi kerak, holbuki milliy ongning ba'zi tomonlaridan ularni o'chirmoqchi bo'layotganlar uchrab turibdi. Olima o'z fikrlarini davom ettirib, "Shoxdor Ona bug'u rivoyati", "Alvido, Gulsari!", "Oq kema" va "Asrga tatigulik kun" asarlarida o'zlikni, milliylikni anglash mavzusi unutilib va tiklab bo'lmaydigan psixologik va ma'naviy parokandalik hissiga yo'g'rilganligini takidlaydi. Tanaboyning xotini Jaydar, tinib tinchimaydigan, o'tovni tartibga solib turadigan zaxmatkash ayol ekanligini eslatar ekan, Grexem Ch.Aytmatov asarlarida ayollar an'ana va odatlarni saqlovchisi ekanligi ta'kidlaydi. Bu

jihatni ko`rsatib bergan olimaning asriy an`analarni buzib, odamlar fikrini nazarga ilmay o`z baxti izidan ketgan Jamilani yoki psixologik iztiroblar ta`sirida milliy tafakkurni yorib chiqqan va yangi insonga aylangan Saidani unutib qo`yganday bo`ladi. Shu sababli boshqa tadqiqotchilarning Aytmatov yaratgan ayollar obrazi, o`z badiiy-estetik mantiqiga ko`ra nafaqat an`analari saqlovchisi, balki zarurat bo`lib, hayot taqozo qilsa, o`z qarashlari uchun qo`rqmas kurashchiga ham aylanishini ham ta`kidlashadi.

Gulsari, yozuv odamlar tomonidan bichilgan paytiga qadar hamma tomondan ajoyib jonivor: birinchidan ajoyib tulpor, yo`rg`a, ikkinchilan, ulkan qudratga ega adabiy obraz. Grexemning fikriga ko`ra, kitobxon uni albatta L. Tolstoyning Xolstomeri bilan qiyoslaydi, biroq ular bir-biridan farqlanishadi: Tolstoy tasvirida ot obrazi tasviri uslubiy priyom; ot qiyofasidagi Xolstomer o`z nomidan aslida muallifning ko`rgan kechirganlarini hikoya qilgan ekan, Tolstoyning jamiyat qusurlari borasidagi fikrlarini sharhlaydi xolos. Aytmatovning oti esa, bu o`z ajdodlari qoni va vujudidan yaralgan, hayot va zamonasini kompassi-ko`rsatkichi, o`lchov birligi. Asarni o`qigan kitobxon Gulsarining borliqdagi hamma narsaga noinsoniy, odamlarga xos bo`lmagan, jonivorlarga xos munosabati, reaksiyasi mavjudligini ko`radi, u faqat otga xos his-tuyg`u va istaklarga, hattoki og`riqqa ega. Olimaning fikricha, “Alvido, Gulsari!” qissasi mazmunan serqirraligi sababli, mashhur adabiyotshunos M. Baxtinning g`oyalari bilan tanishish uchun yaxshigina misol bo`la oladi. Umuman, adabiyotshunos Grexem, Aytmatovning realizmga sodiqligini qayd etadi va bunga birgina epizod – qo`ylarning qo`zilash epizodini misol tariqasida keltiradi. Ammo uning, Aytmatov ijodini “yetuk” davrida (bu so`zni olimo qo`shirnoq ichiga olgan) yaratilgan asarlaridagi realizmning XIX asrdagi mumtoz davri yoki sotsrealizmdan farqlaydi. Olimo yozadi: “Aytmatov realizmi, xuddi Gomerdagi kabi, shunga borib taqaladiki, u kundalik turmush obyektlarini va odatlarini shunday qaynoq tarzda tasvirilaydiki, ularni “poetik faktga” aylantiradi, shuningdek, bunda qadrdon qirg`iz folklor lirikasiga va eposiga muhabbati va uni chuqur bilishi katta rol o`ynaydi. Masalan, odatiy jonvorlar totem va timsollarga aylanadi” [2, 36]. Ch.Aytmatov o`z asarlarida folklor obrazlarini nafaqat moslashtiradi, balki poetik realizm borasida o`z shaxsiy “brend”ini yaratadi – bu ham Grexem fikri. Yozuvchi “Advido, Gulsari!” qissasidan boshlab, keyingi asarlari qahramonlari va qirg`iz folklori taqdiri o`rtasida parallel o`tkazadi. Umrini dastlab tog`larda uchib yurgan kometa singari boshlab, keyin qari qirchang`iga aylanib qolgan Gulsari obrazining mazmun-mohiyati nimadan iborat? Sh. Grexem bu savolni berib, o`zi javob qaytaradi. Uning fikricha, Gulsari bu nafaqat Tanaboy bilan parallel o`tkazish uchun zarur ot yoki allegorik figura, u – noyob individuallik, asarning lirik markazi, epos va miflarning qahramonona hodisasi. Ch.Aytmatov fikriga ko`ra, u bilan ajralish insoniyat uchun xavfli. Shiila Daffin Grexem o`z maqolasini shunday xulosalaydi: “Chingiz Aytmatovning hayotga nisbatan chuqur hurmati, voqea-hodisalarga boy qissa hikoyasi, ezgu munosabatga tayyor va kuchli bosh qahramonlar, faqat o`zigagina xos uslub – buning barchasi “Alvido, Gulsari!” ni postsovet davrida yaratilgan rus adabiyotining eng sara asarlari qatoriga qo`shish imkonini beradi”. [2, 36].

G`arb adabiyotshunosligida Ch.Aytmatov ijodini o`rganishga bag`ishlangan boshqa qator tadqiqotlar ham uchraydi. Ularning aksariyati o`z davri nuqtai nazaridan sovuq urush munosabatlari ta`sirida yozilgan bo`lsa-da, biroq yozuvchi ijodini keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda, uning olamshumul ahamiyatini ta`qidlashda va ayniqsa, adibning badiiy mahoratini, betakror so`z qo`llash usullari va mavzu tanlashdagi ijodkorligini ko`rsatib berishda foydadan holi bo`lmaydi. Shu sababli bunday tadqiqotlar milliy o`zbek adabiyotshunosligi va kitobxonlar ommasi uchun o`ta muhim ahamiyat kasb etadi va ularni tadqiq etish hamda ommalashtirish dolzarb ilmiy vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Асаналиев К. А. Движение во времени. Фрунзе: Кыргызстан, 1978. -275 с.
2. Graham Sh. D. Chingiz Aytmatov's Proschay, Gulsary! // Urbana: Slavic Review Press. 1989. Vol. 4. № 24. - P. 34-42;
3. Гачев Г. Чингиз Айтматов и мировая литература.-Киргизистан, 1982.-321 с.

4. Ибраимов К. И. Миф и миропонимание в гуманистической философии Ч. Айтматова. Бишкек: Кыргызстан, 1998. - 108 с.;
5. Qualin A. Searching for the Self at the Crossroads of Central Asian, Russian and Soviet Cultures: The Question of Identity in the Works of Timur Pulatov and Chingiz Aitmatov. Seattle: University of Washington Press, 1996. - 246 p.
6. Soucek S. National Color and Bilingualism in the Work of Chingiz Aitmatov // Journal of Turkish Studies. 1983. Vol. 5. P. - 70-98.
7. Фанон Ф. О насилии [отрывки из книги «Весь мир голодных и рабов»] // Цветков А. В. (сост.). Антология современного анархизма и левого радикализма, Том 2. — Москва: «Ультракультура», 2003. — С. 15-78;
8. Юсупов, О.Н., 2013. Новые переводы узбекской литературы в английском языке. Ўзбек тили ва адабиёти, 4(4).
9. О.Н. Юсупов. Структура художественного перевода. Вестник НУУ 3 (1), 318-320
10. <http://www.gramota.net/materials/2/ 2018/ 8-1/>

4. D. Sulevmanov, A. Gatiatullin, N. Prokopyev and N. Abdurakhmonova, "Turkic Morpheme Web Portal as a Platform for Turkology Research," 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2020, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351500.
5. <https://uzbekcorpus.uz/>
6. Koskenniemi, K. (1983). Two-Level Model for Morphological Analysis. International Joint Conference on Artificial Intelligence.
7. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati/ A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshq. – T.: 2001
8. А.В. Чемышев Динамический лексикон: компьютерное представление моделей словообразования // *Turklang*, 2017 (II). – P.224.
9. Yuldashev J. Usmon Nosir she'riyati lingvopoetikasi : Filol. fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati 2023.
10. Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aforef." (2018).
11. Alessandro Agostini, Timur Usmanov, Ulugbek Khamdamov, Nilufar Abdurakhmonova, and Mukhammadsaid Mamasaidov. 2021. UZWORDNET: A Lexical-Semantic Database for the Uzbek Language. In Proceedings of the 11th Global Wordnet Conference, pages 8–19, University of South Africa (UNISA). Global Wordnet Association.
12. Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/*Foreign Philology: Language. Literature, Education*. 2018(3):68.
13. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL)*. 2019;6(1-2019):131-7.
14. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. *Journal of Social Sciences and Humanities Research*. 2017;5(03):89-100.